- XIX asrDa hinD kostyumiDa qanDay o'zGarishlar bo'lGan?

9-Ma'ruza (2 soat)

Mavzu: XITOIY KOSTYUMI

Reja:

1. Tarixiy Davr tavsifi.
2. Xitoy falsafalari va Dinlari.

3. Xitoy kosmik ramzlari va san'at tavsifi.
4. Xitoyliklarning kostyumlari tavsifi: yelka va bel kiyimlari,
5. Xitoy kostyumining bichimlari, ijtimoiy belgilari,
6. Xitoyliklarning bosh kiyimlari va ularning ramzlari.

ADabiyotlar: [1] 210-226 b.; [4] 26-29 b.; [5] 22-24 b.

Xitoy madaniyati 4000 yil ilgari vujudga kelgan. Uning madaniyati Misr madaniyati bilan raqiblik qilishi mumkin. Agar Misr madaniyatidan faqat yodgorliklar qolgan bo'lsa (ehromlar, ibodatxonalar va san'at asarlari), Xitoy madaniyatining vasiyatlari esa hozirgi zamonacha o'z garmasidan qoldi (til, yozuv, musiqa va boshqalar).

"Daosizm" (Dao szya) edi. Uning asoschisi Lao-Szi bo'lgandi. Uning asosiy fikri — Dao (yo'l) tahlimoti bo'lib, bu tahlimotga ko'ra Koinotning o'z-o'zidan vujudga kelishi, rivojlanishi va barobod bo'lishining azaliy, tabiiy va umumiy qonuni bor.

Konfusianlik (ju szya) — etik-siyosiy tahlimot. Uning asosida ajdodlarni hurmat qilish turardi. Bu falsafiy oqim keyin Dinga aylanadi.

Elka kiyimi. Odatda xitoyliklar yelka kiyimlarining oldi ochiq bo'lgan. Ichki va ustki kiyimlarning bichim asosi bir xil bo'lgan. Konstruktiv xususiyatlari bo'yicha barcha kiyimlari ikki turga bo'linaadi:

— odatdagi xitoy kiyimining ikkinchi turi ham oldi ochiq va orqa o'rta chokli bo'lgan, lekin ularda **qiyalanagan yelka choki** qilinardi; shu sababdan ularning old va orqa bo'laklari alohida bichilardi.

Ushbu ikki tur kiyimlarning simmetrik va asimmetrik bichimlari bo'laradi. Simmetrik bichimda old bo'laklari uchma-uch bo'lgan, asimmetrik bichimda esa, chap old qismi ga qo'shimcha bo'lak ulanardi, o'ng bo'lagi ko'rinmasligi uchun kaltaroq qilinardi.

Eng kenG tarqalgan erkaklar ichki kiyimi — Sharqiy-Osiyo bichimidaGi simmetrik **"Duy szing"** yoki asimmetrik **"se szing"** ko'ylak - **"xang' shang' sza"** bo'lgan. Issiq ob-havoda ko'ylakning o'zi ustki kiyim bo'lishi mumkin edi. Boshqa vaqtda uning ustidan to'q rangli, astarli, paxtada qavilgan yana bitta yoki bir nechta kiyim kiyishardi.

KenG tarkalgan erkaklarning ustki kiyimi Sharqiy-Osiyo bichimidaGi uzun xalat **"chan pao"** edi. Hashamatli bezatilgan xalatlarda aslzodalar va amaldorlar uchun rasmiy kostyumning majburiy elementi edi.

Ayollar ichki kiyimining erkaklarniki ga nisbatan farqi bor edi. Qadimiy Xitoy odatlari bo'yicha ayollar go'zalligining asosiy belgisi — yassi ko'krak hisoblanardi. Unga erishish uchun qizlar va ayollar ko'kraGini uzun ip gazlamali tasma **"bao syun tyao"** bilan tarang siqib bog'lab qo'yishardi. Shu maqsadda ham tanani siqib turaDIGan ichki nimcha **"kang' szyang', kang' szyar"**ni kiyishardi. Faqat homilador va bola emizadigan ayollar ko'kraklarini bog'lamae dilar.

Qadimiy Xitoyda ayollar ustki kiyimi Sharqiy-Osiyo usulida turli asimmetrik bichilgan kofta **"pao"** bo'lgan. Uni uzun ishton va yubka — plaxta ustidan kiyishardi. Kofta ustidan nimcha **"bey sing"** va tantanali marosimlarda etaGi shokila bilan bezatilgan uzunroq nimcha **"sya pey"** kiyishardi. Boy ayollar koftalarining yoqasi va chap old bo'lagining etaGini kashta va hoshiya bilan bezatishardi. Kambag'al ayollar koftasi bezaksiz edi yoki bir rangli tasma bilan bezatilaradi. Koftani ishton ustidan kiyishardi.

Ayollar xalati **"si pao"** Sharqiy-Osiyoli, asimmetrik bichimli edi. Xalatning shakli to'g'ri yoki sal tana ga yopishib gavda shaklini ko'rsatar edi. MoDaGa asoslanib, ularni yengi to'g'ri, kenG yoki tor, kiyalangan, uzun yoki kalta bo'laradi.

Xalat **"si pao"**ni koftadan asosiy farqi — uni uzun ishtonsiz kiyishardi.

Erkaklar va ayollar bel kiyimlari **ishton "kusza", yubka-plaxta "syung'za"** va peshband bo'lgan.

Ishton-paypoq **"tokau"** XitoyDa payDo bo'lgan. Bu alohida, og'i biriktirilmaGan, paypoqsimon poychalar eDi. Ular bog'ich yorDamiDa belboqqa mahkamlanarDi. HozirGi DavrDa **"tokau"**ni ishton ustiDan kiyishaDi.

ODatDa, ishtonni kanop tola **"bu, mabu"** yoki shoyi va ip matoDan tikisharDi.

Ko'pincha xitoyliklar ishton poychasini tizza pastidan bog'lar eDilar. Bahzan uni Gamash **"bi"** bilan tortib qo'yisharDi yoki ustiDan etiksimon paypoq **"va"**Ga kirGizisharDi.

Yubka-plaxta **"shan"**ni o'rta va yuqori tabaqaning erkak va ayollari kiyisharDi. UninG bichimi bir xil bo'lgan: ikki to'g'ri to'rtburchakli matoGa belbog' tikilar eDi (peshbandGa o'xshash) va ular yorDamiDa belGa mahkamlanarDi. Shanni yon tomoni plissirovka, o'rtasi orqa va old bo'laklariDa kashta qilinarDi.

Ko'pincha kofta va plaxta kiyishGanDa old belboqqa **peshband**ni qistirib qo'yisharDi. Uni qurbonlik marosimlarDa kiyish shart eDi. Peshband oDatDa qizil rangli bo'lib, shaxsninG ijtimoiy sharoitiGa mos qilib bezaklanarDi.

KostyumninG enG muhim bo'limlariDan biri belbog' **"Day"** hisoblanarDi. Aslzodalar va amalDorlarninG boyluk belGisi bo'lib, ular xilma-xil bo'larDi. UlarninG ikki turi uchrarDi:

1) matoDan qilinGan ikkita izma va uchi uzun osilib turGan belbog';

2) charmDan qilinGan va nefrit, metall yoki shox plastinalar bilan bezatilGan belbog'-kamar.

Nefrit halqalar va boshqa bezaklar bilan to'qilGan rangli shnurlar — **"shou"** shaxsninG ijtimoiy holini ko'rsatarDi, Shouni beliGa bog'lasharDi, uchlari esa yoniDa yoki orqasiDa osililib turarDi. UnGa bahzan kerakli foydali buyumlarni (pichoq, chaqmoqtosh, uzuk va b.) osib qo'yisharDi.

Bosh kiyim va pricheskalar. Qadim zamonlarDa xitoyliklar sochlarini qirqmaGanlar. Ular sochlarini tuGunGa yig'ib, shpilg'ka yorDamiDa mustahkamlab qo'yar eDilar. Bosh kiyimlarninG shakllari har xil bo'lgan. UlarninG kiyish oDatlari ovropoliklarnikiGa qarama-qarshi bo'lgan. AGar ovropoliklar hurmat bilan bosh kiyimni yechsa, xitoyliklar esa qaytaGa uni kiyar eDilar.

Oyok, kiyimlar. MatoDan, kanop tolasidan yoki poxoldan to'qilGan yengil tufli **"Szuy"**, keyinroq **"li"** Deb atalGan oyoq kiyim kenG tarqalGan eDi. MatoDan to'kilGan tufli ninG boshliGi **"semyang"** ko'pincha naqshli kilinarDi. Qalin taGliGi bir necha qavat yelimlangan va tikilGan kog'ozdan ishlanarDi. CharmDan qilinGan tufllilar ham uchrab turarDi.

Tantanali tufli **"si"** ikki kavat hoshiya bilan bezatilarDi. TovonininG yon tomonlari yanchilGan chig'anoq toshdan qilinGan bo'yoq bilan bezatilarDi. Uchi esa, qo'shimcha yelkansimon qo'shimcha bilan bezatilarDi.

Yog'inGarchilikDa yog'ochdan qilinGan **skameykasimon**, tepasi yo'q shippak **"szi"** kiyisharDi. MatoDan qilinGan tasma yorDamiDa szi oyoqqa bog'lanib ko'yilarDi.

Ko'chmanchilar ta'sirida XitoyGa charm etik **"syue"** kirib kelDi, shular qatoriDa matoDan qilinGan etik ham bo'lgan.

Sin Davrida saroyDa uchi sal ko'tarilGan ipak yoki charm etik kiyishGan. Fuqaro amalDorlar kvaDrat tumshuqli etik kiyisharDi. Bu Osmon va yerninG jismoniy va intellektual kuchlarininG qarama-qarshiligini ko'rsatarDi.

Etik qo'nji — **"syuetun"san** ko'pincha cho'ntak sifatida foydalanar eDilar.

Nazorat savollari

1. Qadimiy Xitoy maDaniyati qachon vujudGa kelGan?
2. XitoyDa qanDay falsafalar va Dinlar mavjud bo'lgan?
3. Xitoy kosmik ramzlari va san'atninG qanDay aloqalari bo'lgan?
4. Qadimiy XitoyDa Dunyo tuzilishi DialektikasininG ramzlari qanDay bo'lgan?
5. Qadimiy Xitoy falsafasiDa qanDay Grafik ramzlar bo'lgan?
6. Qadimiy Xitoy falsafasiDa qanDay Geometrik shakllar ramzlari bo'lgan?
7. Qadimiy Xitoy falsafasiDa qanDay sonlar ramzlari bo'lgan?
8. Qadimiy Xitoy falsafasiDa qanDay ranglar ramzlari bo'lgan?
9. Qadimiy Xitoy falsafasiDa qanDay o'simliklar va tirik jonzotlar ramzlari bo'lgan?

10-Ma'ruza (2 soat)

Mavzu: YaPONIYa KOSTYuMI

Reja:

1. Tarixiy Davrlar tavsifi.
2. Yaponiya Dinlari va falsafalari.
3. Yaponiya san'atining asosiy kateGoriyalari va o'ziGa xos xususiyatlari.
4. Yaponiyaliklarning kostyumlari tavsifi.
5. Erkaklar kostyumi, yelka va bel kiyimlari.
6. Ayollar kostyumi, yelka va bel kiyimlari.
7. Oyoq kiyimlari,
8. Kostyumning qo'shimchalari.

ADabiyotlar: [1] 226-242 b.; [5] 26-29 b.

Yaponiya - juDa qadim zamonlardayoq sivilizatsiya paydo bo'lgan Sharqiy OsiyodaGimamlakatlarDan biri.

VI asrdan boshlab Nara shahrida imperator xokimiyati va Xitoyga oid rivoj boshlanganadi. VI—IX asrlar feodal Yaponiyaning eng yuqori yutuqqa erishgan davri edi. XIX asrgacha (1868 y.) Yaponiya tashqi dunyodan ajralib turgan feodal mamlakat bo'lgan. Ammo Xitoy, Xindiston, Koreya va Indoneziya madaniyatlari bilan Yaponiya aloqa bog'langan edi.

“Sabi”— yaponlar uchun Go'zallik va tabiiylik bir-biriga aynan o'xshash tushunchadir. Fayritabiiy narsalar Go'zal bo'la olmaydi. Faqat maxsus sifatlarni qo'shib tabiiylik yaratish mumkin. Sabi - bu tabiiy zang, arxaik mukammal emaslik, eskilikning Go'zalligi, vaqt tamg'asi. U tabiat va san'at orasidaGim aloqani amalga oshiradigan vositadir.

“Vabi” - san'at va kundalik hayot orasidaGim ko'prik. Vabi tushunchasini, yaponlar tahkidlashi bo'yicha, so'z bilan tushuntirib berish qiyin. Uni sezish kerak. Vabi - bu bironta bejamdorlikni, yaqqollikni, jo'rtaGa qilinganlikni, yahni yaponlar tushunchasida beodoblikning yo'qligi. Vabi - bu doimiy Go'zallik, dono izchillik, tabiat Go'zalligi, buyumlarning Go'zalligi - mana shularning hammasi “vabi” tushunchasi bilan borliq.

“Sibuy” (sabi+vabi) tushunchasi yaponlarning buyum bilan ishlashiGa borliq. Yapon ustasi buyumga hukmdor qulga amas, balki sevgan ayoliga, undan o'ziGa o'xshagan bola bo'lishini xolagan erkakka o'xshab yondoshadi. Yapon rassomi materialni zo'rlamasdan uning mohiyatini, Go'zalligini ko'rsata oladi. Yapon san'atining maqsadi - toshni, yog'ochni, qog'ozni va boshqa materiallarni shunday holatga yetkazishi kerakki, ular eng to'liq o'z tabiiy Go'zalligini ochishi lozim bo'lsin.

San'at siri shundaki, etilmaGanni eshitish, ko'rinmaydigan tomosha qilishdir. Bu to'rtinchi Go'zallik tushunchasi “**yuGen**”ning asosidir. Bu shahmani, taGmahnoni ustalik bilan amalga oshirish, oxirigacha aytmasdan, shahma bilan yakunlash ham o'ziGa xos Go'zallikdir.

Erkaklar kiyimi. Erkaklar kiyimi ichki va ustki, yelka va bel kiyimlaridan iborat. Ular shaxsning ijtimoiy ahvolini yaqqol ko'rsatadi.

Ichki kiyim “**sitaGi**” bel va yelka kiyimlaridan iborat.

Bel kiyimi “**fundosi**” va “**kosimaki**” bo'lgan. Fundosi — bu ip gazlamaDan qilingan, songa bog'langan bog'ich. Fundosining birinchi turining uzunligi taxminan 2,25 m oq matoDan qilinadi. Uning bir uchi beldan aylantirib bo'g'ingaga bog'lanadi, ikkinchisi esa oyoq orasidan o'tkazilib, orqasida belda mahkamlanadi. Fundosining ikkinchi turi “ettyu fundosi” birinchiGim nisbatan kaltaroq bo'lib, belga maxsus bog'ich yordamida mahkamlanadi. Uni

feodal YaponiyaDa samuraylar va amaldorlar, keyinroq XIX asrDa, axolininG barcha tabaqalari kiyishardi.

Erkaklar ustki kiyimi yelka va bel kiyimlaridan iborat edi. yelka kiyimiga **“kimono”** va **“xaori”** kirardi, bel kiyimiga - **“xakama”**.

“Kimono” (kiru mono - ustdan kiyiladigan) XVII-XIX asrlarDa ustki kiyim sifatida keng tarqalgandi. Kimono - xalatsimon, uzunligi to'piqqacha tushadigan, etaGi chapdan o'ngga o'ralgan kiyim. Uni kiyganda ichki kiyim yoqalari **“xanheri”** ko'rinishi kerak edi.

Faslga moslanib kimono har xil qilinardi:

- **“xitoe”** - yozlik, astarsiz;

- **«avase»** - salqin mavsumga moslanib, astarli qilindi;

- **«kosoDe»** - qishliq, astar va avra orasiGa xom ashyo ipak tolasi solingan, ammo qavilmaGan;

- **«vata ire»** - qishki, aster va avra orasiGa paxta solinib qavilgan.

Yaponlarning kostyumi nimaGa mo'ljallanganiga qarab *«past uslub»* - *«funDaGi»* va *«yuqori uslub»* - *«refeku»* Ga ajralardi.

Kiyimning kiyilishi quyidagicha bo'lgandi:

- *«saGefuku»* - ish kiyim;

- *«funDaGi»* - kundalik kiyim;

- *«xareGi»* - qishlik kiyim;

- *«refeku»* - rasmiy – tantanali kiyim.

Nazorat savollari

1. Qadimiy Yaponiya san'atining rivojlanishiGa nima ta'sir etgan?
2. Yaponiya dinlari va falsafalari qanday bo'lgan?
3. Yaponiya san'atining asosiy kategoriyalari va o'ziGa xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Yaponiyaliklarning kostyumlari qanday bo'lgan?
5. Erkaklar kostyumi, yelka va bel kiyimlari qanday bo'lgan?
6. Ayollar kostyumi, yelka va bel kiyimlari qanday bo'lgan?
7. Yaponlarning oyoq kiyimlari qanday bo'lgan?
8. Kostyumning qo'shimchalari nimalardan iborat bo'lgan?

11-Ma'ruza (2 soat)

Mavzu: KOREYA XALQLARI KOSTYUMI

Reja:

1. Koreys kostyumiDa ijtimoiy tabaqalanishning aks etishi.
2. Koreys kiyimlarining o'ziGa xos xususiyatlari.
3. Erkaklar va ayollar kostyumi.
4. Kostyum materiallari va ishlatilgan bezak turlari.

Adabiyotlar: [5] 31-33 b.

Koreys milliy kiyimlari va unga qo'shimcha elementlar juda ko'p asrlar davomida shakllanib kelgan. Koreys milliy kostyumlariga Xitoy feodal davlatining ta'siri katta bo'lgan.

Lekin bu degani koreys va xitoy milliy kiyimlari aynan bir xil emas. Ular o'rtasida ayrim bog'liqliklar va ko'pgina farqlar mavjud. Ko'pgina koreys milliy kostyumlarini yapon qiyiqi o'tidan, kanopdan, paxtdan, ipak tolali matoldan tikishgan. Koreys boylari yuqori sifatli, kambag'allari esa past sifatli ipakdan kiyim kiyishgan. Junli gazlamalar KoreyaDa uncha mahlum bo'lmaGan.

Koreys ayollari milliy kostyumi ichiDa enG asosiy o'rin tutuvchi kiyim bu – «**choGori**» DeyilaDi.

Koreys milliy kiyimininG yana bir turi bu «**soksonat**» – yahni tikilmaGan o'timli yubka bo'lib, bevosita baDanGa kiyilGan. Bu kiyim uch qismDan iborat ip Gazlama bo'laklariDan iborat bo'lib, bel qismiDa burmalanGan va belbog'Ga biriktirilGan. SoksonatninG ustiDan kenG ishtonlar – «**paDi**» kiyilGan. SoksanotninG ustiDan esa yana bir yubka «**chxima**» kiyilGan.

Nazorat savollari

1. Koreys kostyumiDa ijtimoiy tabaqalanishninG qay tarzDa aks etGan?
2. Koreys kiyimlarininG o'ziGa xos xususiyatlari nimalarDan iborat?
3. Nima sababDan tarixDa Koreyani «oqqushlar mamlakati» Deb atashGan?
4. Erkaklar va ayollar kostyumi qanDay elementlarDan tashkil topGan?
5. KostyumDa qanDay materiallar ishlatilGan?
6. Kostyum bezaklari sifatiDa nimalarDan foyDalanilGan?

12-Ma'ruza (2 soat)

Mavzu: O'RTA OSIYO ANTIK KOSTYUMI

Reja:

1. Antik Davr tavsifi.
2. O'rta Osiyo xalqlarininG antik DavrDa tarixiy taqDiri
3. O'rta Osiyo xalqlarininG turmush tarzi, Dinlari.
4. Erkaklar va ayollar kostyumi turlari.

ADabiyotlar: [1] 243-249 b.

MiloDDan avvalGi 2-minG yillikninG oxiri – 1-minG yillikninG boshlariDa O'rta OsiyoDa yirik qulDorlik Davlatlari Baqtriya. So'g'D va Xorazm payDo bo'lGanDi.

Ayollar kostyumi. Ayollar kostyumi yunonsimon, skifsimon va hindsimon bo'lGanDi. Ular ichki va ustki: yelka, bel, bosh va oyoq kiyimlarDan iborat eDi. Ayollar ko'ylaGininG ikki turi uchrarDi. Birinchisi – tunikasimon bichimli, ko'kraGi taGiDa va beliDa belbog' bilan bog'lanGan to'g'ri kuylak eDi. UninG yoqa o'mizi Dumaloq bo'lGan, oldi esa tomchisimon kesimli eDi. KuylakninG ikkinchi turi yunon xitoniGa o'xshash eDi: bo'y baravar mato parchasini yelkaDa to'g'nog'ich bilan biriktirisharDi, etaGini, yon burchaklarini tuGunGa bog'lab qo'yisharDi (antik yunon xitonlarDa esa etaGi erkin tushib DrapirovkalanarDi). Bu ko'ylak beliDa yoki ko'kraGininG taGiDan belbog' bilan bog'lanarDi. Ustki kiyimlari skifsimon kaftanlar va yopinchoqlar bo'lGan. Kaftan bichimi tunikasimon bo'lGan, shakli to'g'ri yoki GavDaGa yopishib turGan. Tor yenGi uzun eDi, bahzan, ko'nDalanG taxlamalilari ham uchrarDi. Kaftanlar tik yoki DiaGonal yo'nalishDa qavilarDi. Yoqa o'mizi va oldi to'qilGan tasma bilan bezatilGanDi. Ko'ylak va kaftan ustiDan yopinchoq kiyisharDi. Ular bo'y baravar to'g'ri to'rtburchak matoDan qilinib, yelkaGa tashlanarDi, old uchlari esa to'g'nog'ich bilan biriktirilardi.

Bel kiyimi – uzun, etakka kirGizilGan ishtonlar eDi. Ular ko'ylakninG taGiDan ko'rinishi mumkin eDi.

Bosh kiyimlari konussimon namatDan qilinGan qalpoqlar, yumshoq yassi shapkalar, sellasimon, tojsimon bosh kiyimlar va yopinchoqlar bo'lGan.

Soch turmaklari murakkab va xilma-xil bo'lGan. O'rilGan sochlar turli usulDa turmaklanGanDi.

Bezak taqinchoqlar: tojlar, ziraklar, tillaqoshlar, Grivnalar va boshqalar bo'lGan.

Oyoq kiyimlari yumshoq etik eDi, GohiDa, qo'njininG tepa qismi qaytarilishi mumkin eDi.

Erkaklar kostyumi. Ularning kiyimi ham yelka va bel, ustki va ichki kiyimlardan iborat.

Elka kiyimi ichki ko'ylak va ustidan kiyiladigan kaftandan iborat. Ularining bichimi tunikasimon, shakli to'g'ri edi. Kiyim gavdagaga sal yopishib turardi. Uzunligi bo'ksadan pastroq yoki tizza-gacha edi. Uzun yengi tor yoki ko'ndalanga taxlamali bo'lgan. Belga belbog' bog'lashardi. Bel kiyimi tor yoki ko'ndalanga taxlamli ishtonlardan iborat edi. Bosh kiyimlari yassi yoki konussimon qalpoqlar bo'lgan. Oyoq kiyimlari esa yumshoq, tepasi qaytarilgan etiklar edi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo antik kostyumi-ga skiflar, ellinlar va hindlarning ta'siri bo'lgan. Ammo O'rta Osiyoliklarning kiyimlarining shakli-da, kiyinish odatlari-da, kiyim turlari-da mahalliy odatlari-ga oid xususiyatlari mavjud bo'lgan va u juda kenG, boy tarix-ga ega edi.

Nazorat savollari

1. Antik Davrda O'rta Osiyoda qanday Davlatlar bo'lgan?
2. O'rta Osiyo xalqlarining antik Davrda-gi tarixiy taqdiri qanday bo'lgan?
3. O'rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi va Dinlari-ga nimalar ta'sir etgan?
4. Ayollar kostyumi turlari qanday bo'lgan?
5. Erkaklar kostyumi turlari qanday bo'lgan?
6. O'rta Osiyo xalqlarining kostyumi-da buDDizmninG ta'siri qanday aks etgan?

13-Ma'ruza (4 soat)

Mavzu: ILK O'RTA ASR O'RTA OSIYO KOSTYUMI KOSTYUMI

Reja:

1. Ilk o'rta asr Davrining va badiiy uslubining tavsifi, Dinlari.
2. Ilk o'rta asr Davrining erkaklar va ayollar kostyumi turlari.
3. Kostyumning bichimi va beza-gi.
4. Kostyum-da qo'llanilgan matolar.

ADabiyotlar: [1] 249-260 b.

O'zbekiston hududida quldorlik munosabatlarining ilk feodal munosabatlari-ga o'sib o'tishi uchun zarur shart-sharoitlarning yetilishi III-IV asrlar-ga to'g'ri kelaDi. VI - IX asrlar Davomida ilk feodal jamiyati bu hududda uzil-kesil qaror topDi.

V-asrlar-da O'rta Osiyo va Kozog'iston hududini ishg'ol etib, o'z Davlatini vujud-ga keltirgan xunn qabilalari-dan iborat eftalitlar hukmronli-gi Davrida feodal munosabatlari ancha rivoj topaDi. Eftalitlar bilan Eron sasoniylari uzoq vaqt urush olib boraDilar. Eftalitlar zarb etgan tan-galar savdo-sotiq muomalasi-da muhim rolg' o'ynayDi. Ular mahalliy aholi bilan tobora aralashib, o'troq hayot kechira boshlaDilar. Bu Davrda bir qator shaharlar bunyod bo'lib, shinam uy-joylar va ibodatxonalar qad ko'taraDi.

Erkaklar kostyumi-da avvalgi Davrning kiyimlari qatori-da ikki tomonlama qaytarmali turk kaftanlari kenG tarqalganDi. Kaftan gavdagaga yopishib turar edi, uzunligi esa bo'ksa-gacha bo'lib, yon kesimi bo'lma-ganDi. Dekorativ mato bilan faqat yoqasi va yeng uchi bezatilarDi. Ustki kiyim- yopinchiq ham ikki tomonlama qaytarmali bo'lgan. Bu Davrda etiklar ham nozik bo'lgan.

6-7 asrlar-da ayollarning estetik timsoli xam o'zgar-ganDi. Endi u beli in-gichka, yuzi nozik ayol edi. Kiyimning yangi chegaralari, yangi plastik siymosini yarat-ganDi. Kosmetika bun-ga katta yordam berDi. Ayollarning kiyimi erkaklar kiyimi komplekti-ga o'xshash edi.

UlarDan tashqari, ayollar kiyimi ansambliDa nimchalar, koftalar, to'g'ri bichimli yubkalar va uzun ko'ylaklar uchraGanDi.

7 asrning oxiri – 8 asrning boshlarida O'rta Osiyo xalqlari kostyumining bichimi murakkablashgan. Kiyimlarning uzunligi endi tizzaDan pastda joylashgan. Tunikasimon bichim ham o'zgaragan: yenglari yelkaDan sal pastroq tikilarDi va yelka choklari Dekorativ mato bilan bezatilganDi.

Erkaklar va ayollar kostyumiDa taqinchoqlar muhim rolg' o'ynagan. Ular shaxsning ijtimoiy holini ko'rsatarDi. Ayol va erkaklar zirak, qo'l va oyoq bilaGuzuklarini, marjonlarni, ko'krak osilchoqlarni va kamarlarni taqisharDi. ToharistonDa fakat erkak va ayol xizmatchilar belbog' kiyisharDi, aslzoda ayollar esa belini bog'lamasDi.

Nazorat savollari

1. Ilk o'rta asr Davrining badiiy uslubi va Dinlari qanDay bo'lgan?
2. Ilk o'rta asr Davrining erkaklar kostyumi turlari qanDay bo'lgan?
3. Ilk o'rta asr Davrining ayollar kostyumi turlari qanDay bo'lgan?
4. KostyumninG bichimi va bezaGi qanDay bo'lgan?
5. KostyumDa qanDay matolar qo'llanilgan?

14-Ma'ruza (4 soat)

Mavzu: KECh O'RTA ASR O'RTA OSIYO KOSTYUMI

Reja:

1. Tarixiy Davr tavsifi.
2. Erkak va ayollar kostyumi: yelka kiyimlari, bel kiyimlari.
3. KostyumninG ijtimoiy va spesifik belgilari, bezaklari.
4. Bosh kiyimlar, poyafzal, soch turmaklari.

ADabiyotlar: [1] 261-285 b.

Arablar istilosiDan keyin O'rta OsiyoDa (IX— XII asrlar) feodal munosabatlar yanaDa mustahkam neGizDa qaror topa borDi.

X asrDa Sharqiy Turkiston va yettisivDa Qoraxoniylar sulolasi nomi bilan atalgan qudratli feodal Davlati vujudGa kelDi. UninG ta'sir Doirasi O'rta OsiyoninG SomoniylarGa avval tobe bo'lgan katta hududlarGa yoyilDi. Qoraxoniylar DavlatiDa o'troq va yarim o'troq holda yashay boshlagan turk va turklasha boshlagan aholi Xorazm va Toshkent vohalariDa, Farg'ona va So'rdiyona yerlariDa asosiy ko'pchilikni tashkil etarDi.

Erkaklar kostyumi. Erkaklar libosi ustki va ichki, yelka va bel kiyimlarDan iborat eDi.

Ustki yelka kiyimlari turli chopon va chakmonlarDan iborat bo'lgan. Eng kenG tarqalgan kiyim - oldi ochiq chopon eDi. Ularning bichimi bir xil - tunikasimon - bo'lib, Detallari, bezaGi, matosi va kiyish usuli bilan farqlanarDi. Oldi ochiq kiyimlar kalta va uzun yengli yoki yengsiz bo'larDi. Ular tunikasimon bichimli bo'lgan holda, orqa bo'lagininG o'rtasiDa yoqa o'mizidan beligacha vitachka qilinardi va shuning yordamiDa kiyim GavdaGa yopishib turardi. Odam harakatiGa qulay bo'lishi uchun yon choklarininG pastida kesik kolDirilarDi. Choponlar qaytarma va tik yoqali yoki yoqasiz bo'larDi. Yoqalar va kaytarmalar boshqa rangli matoDan qilinardi. Aslzodalarning kiyimiDa mo'yna yoqalar

ham uchrardi. Yoqalarning shakli asosan trapesiyasimon bo'lgan. Odatda yoqalar qora rangli qilinardi, BuxoroDa esa XVI asrDa zarbof kashta tikilardi.

Choponlar astarli edi. Astarining matosi va uning rangi boshqa bo'larDi. Mo'yna astarli, mo'yna shol yoqali, bo'yi va yengi juDa uzun *chopon "faraDji"* Deb atalardi. Uning yengida qo'lini chiqazish uchun kesik qilinardi.

Kalta yengli chopon "koba"ning bir necha turi uchragan. yeng uzunligi bilagining o'rtasigacha bo'lsa, choponning etaGi kenGaytirilib, ziyiga qavilgan mag'iz qilishardi. XV asrDa shu turDaGi choponDa beliDan pastgacha ikki yon kesim bo'lgan va bahzan, orqasiDa ham kesim uchrardi. Keyinroq orqa kesim kiyimlarDa qilinmayDiGan bo'ldi.

Koba uzun yengli *joma* yoki *faraDji*ga nisbatan kaltaroq edi. Uning uzunligi tizzaGacha yoki bolDirning o'rtasigacha bo'lgan, bahzan, qariyalar, aslzoDalar va saroy xizmatkorlarida uzunroqlari ham uchragandi.

Ayollar kostyumi. MiniaturadaGi tasvirlarga ko'ra ayol kostyumining nomlari, turlari, shakli, bichimi, bezaGi erkaklarnikiGa o'xshash bo'lgan.

Ichki kiyim tunikasimon bichimli, uzun yengli, oq ko'ylak «kurta» edi. Uning yoqa o'mizi Gorizental yoki chuqur vertikal bo'lgan. Bu ko'ylakning orqa va yon choklari bo'lgan. Ichki kuylak ustiDan boshqa rangli, tunikasimon bichimli ko'ylak «*piroxan*»ni kiyishgan. Piroxan uzun yoki kalta yengli bo'lib, ichki ko'ylaGiDan kaltaroq (tizzaGacha) edi va beliGa yopishib turardi.

Ichki bel kiyimi *ishton "ezor"* bo'lgan. Uning uzunligi to'pig'igacha bo'lib, bahzan, etik yoki mahsining ichiGa kirGizilardi.

UlarDan tashqari miniatyuralarDa ustki kiyim sifatida kalta, oldi ochiq, uzun yoki kalta yengli kiyim "*kaltacha*" tasvirlangan.

Koba, joma, *faraDji* va kaltachaning astari boshqa rangli matoDan qilinardi. AslzoDalar ustki kiyimining astari ipakDan, *faraDji*Da esa - olmaxon, tulki va suvsar mo'ynasiDan qilinardi.

ErkaklarDa yo'q, ayollarning o'ziGa xos ustki choponi - "*mursak*" (*munisak*) edi. Uning old yoqa o'mizi chuqur qilinardi; qo'ltig'ining ostiDa yonlari ser burmalanardi, yenglari kenG edi, bichimi tunikasimon bo'lgan. Shunday choponni O'rta OsiyoDa XIX asrGacha kiyishgan, XX asrDa esa u Dafn marosimiGa kiyiladiGan kiyimGa aylandi. MiniaturalarDa *mursak* kobani ustiDan kiyilgan.

XVII asrning ikkinchi yarmida miniatyura tasvirlarida *paranji* tasvirlangan. U yuqoriDa tahriflangan chopon *faraDji* edi, ammo *paranji*Da uzunligi ko'krakGacha tushadiGan ot qiliDan yasalgan to'r "*chashmband*" bo'lib, u bilan ayolning yuzi berkitilgandi.

Samarqand moDalari oDDiyroq bo'lgan. Ularning siDirg'a matoDan tikilgan choponlarida kashta qilinmasDi. Chet el moDasi ta'siri juDa kam bo'lgan va O'rta Osiyo xususiyatlari XVI - XVII asrlar Davomida saqlangandi.

XVI asrning boshiDa SamarqandDa Hirot choponlariga o'xshash kiyimlarni kiyishgandi (butun temuriylar imperiyasiGa tarqalgan mo'yna bilan sirlangan *faraDji*). XVI asr 40-yillarida GavDaGa yopishib turgan, uzunligi to'piqqacha tushadiGan, baxmalDan tikilgan kichkina qaytarma yoqali koba va choponlarni kiyishgan.

XVII asrDa SamarqandDa Buxoro chopon va kobasiGa o'xshaGan kiyimlarni kiyishgan, ammo, ular siDirg'a matoDan tikilib, bezaGi bo'lmasDi. Ko'ylaklarning old yoqa o'mizi chuqur uch burchakli edi va beli sal burmalanardi. Ichki ko'ylaGi yirik tuGmalarGa tuGmalanardi.

Motam kiyimi qora va to'q ko'k rangli, oldi yirtilgan choponlar bo'lgan. Yana bir narsaga ehtibor berish kerak – motam kiyimiDa belbog' bo'lmaGan, u XVIII yoki XIX asrDa kiyilgan, chunki XVII asrDaGi miniatyuralarDa belbog' tasvirlanmaGan.

Bosh kiyimlari ro'mol, mo'yna bilan chekkasi bezalgan Do'ppisimon qalpoqlar, peshonabandlar va boshqalar bo'lgan. Peshonaband eshilgan ro'moldan yoki yupqa oq

tasmaDan qilinGan. BuxoroDa u naqshli kashta yoki qimmatbaho toshlar bilan bezatilarDi. PeshonabanDninG ustiDan ro'mol o'rasharDi.

Sochlari harakat qilGanDa oldiGa tushmasliGi uchun ro'mol ostiDan boshGa *sochpopuk* "*kulyuta*" yoki "*chochkap*" kiyisharDi. HozirGi zamonDa ular qirg'iz va qozoqlarDa saqlanib qolGan.

Qari ayollar qozoqlarnikiGa o'xshash bosh kiyim "*kimishek*" kiyishGan.

Motam marosimiDa bosh yalanG bo'lishGan.

Malikalar, xonlarninG xotinlari, xon avlodlari toj kiyisharDi. Erkak va ayol tojlari o'zaro farqlanarDi.

XVI asrDa Buxoro ayollari zar ipli Doka ro'molninG ustiDan tillaqosh taqishGan.

Ayollar sochini berkitib yurisharDi, qizlar esa sochini ikkitaGa o'rib, uchiGa *pilik* yoki *soch popuklar* o'rasharDi. SamarqanDDa qizlar sochini mayDa o'risharDi.

Ayollar kostyumini oyoq kiyim yakunlayDi. MiniaturalarDa yosh ayollar va qizlar etik "*mahsi*", nim etik "*nim-chakme*", baland ko'njli poshnali etik "*chakme*" va charm tufli "*kavush*"Da tasvirlanGan. BuxoroDa etikninG qo'nji kashtalanarDi. Poyafzal asosan qora va bahzan oq va sariq rangli bo'lGan. Qari ayollar qora, uchi uchli kavushlarni yalanG oyoqqa kiyishGan, yoshlar esa etikninG ustiDan kiyisharDi.

Nazorat savollari

1. IX – XII asrlarDa O'rta OsiyoDa qanDay Davlat vujudGa kelDi?
2. Ayollar kostyumi: yelka kiyimlari, bel kiyimlari qanDay bo'lGan?
3. Erkak kostyumi: yelka kiyimlari, bel kiyimlari qanDay bo'lGan?
4. O'rta OsiyoDa kostyumninG ijtimoiy va spesifik belgilari va bezaklari qanDay bo'lGan?
5. O'rta OsiyoDa bosh kiyimlar, poyafzal, soch turmaklari qanDay bo'lGan?
6. O'rta OsiyoDa kostyumDa ijtimoiy belgilar qanDay aks etGan?

15-Ma'ruza (2 soat)

Mavzu: XIX—XX ASRNING BIRINCHI YARMIDAGI O'ZBEK KOSTYUMI

Reja:

1. Tarixiy Davr haqiDa qisqacha ma'lumot.
2. Ba'diiy uslub tavsifi.
3. Erkaklar va ayollarninG kostyumi: ichki kiyimlar turlari,
4. XIX—XX asrDa ustki kiyimlar turlari,
5. XIX—XX asrDa oyoq kiyimlar turlari.
6. KostyumninG ijtimoiy va mahalliy belgilari, bezaklari.

ADabiyotlar: [1] 285-303 b.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O'zbekiston to'kimachilik san'ati va Dekorativ amaliy san'ati ham kenG rivojlanGan eDi. An'anaviy o'zbek shoyilari (*kaunas*, *shoyi*, *xonatlas*), nimshoyilar (*beqasam*, *banoras*, *parpasha*, *aDras*) Buxoro, SamarkanD, NamanGan va boshqa shaharlarDa ishlab chiqarilarDi. O'rta Osiyo aslzodalari shu GazmollarDan kiyim kiyisharDi. Kambag'al aholininG kiyimi asosan ip matolarDan (*bo'z*, *olacha*, *susi*, *janDa*) bo'larDi.

Ayollar kiyimi. QadimDan ayollarninG anhanaviy ichki kiyimi tunikasimon ko'ylak va lozimDan iborat eDi. Ko'ylakninG shakli to'g'ri, bahzan etaGi kenGayGan bo'lib, uzunliGi to'piqqacha eDi. Qizlar ko'ylaGiDa yoqa o'mizi ko'ndalanG qilinib, chetlari boshqa rangDaGi mato yoki tasma bilan tikib chiqilarDi. TurmushGa chiqqan ayollar esa bertikal kesimli ko'ylak

kiyisharDi. Kesim ko'kraGini o'rtasiDan uzunliGi taxminan 25 sm qilinish, tasmalar bilan bog'lanar eDi.

Yoqa o'mizi bu yerlarDa juDa uzun qilinarDi, ko'ylaklar juDa kenG, uninG yenglari esa g'oyat kenG va uzun. Turkiston o'lkasiDa oDatDa vertikal qirqimli qopqoq bilan berkitilgan yoqa o'mizi, baland tik yoqa kirib kela boshlaDi. Bu yoqani "it yoqa", "no'Goy yoqa", zarafshon boDiysiDa "qozoqi yoqa" Deb atasharDi.

Yosh ayollar birinchi farzand tug'ilganicha uchlariga qaraGan ko'pGina uchburchak ko'rinishDa "tishchalar" yoki plissirobka par-para bilan bezalgan tik yoqali ko'ylaklarni kiyishgan. Shunday tik yoqa o'zbek va tojik ayollarning ko'ylaklari uchun xos eDi.

XIX asrning oxirlarida qirqilgan koketkali ko'ylak — ko'krakburma ko'ylak paydo bo'ldi. Bu ko'ylak asr davomida tunikasimon bichimning rivojlanishi natijasida kelib chiqdi. Ko'ylak ser burmalangan gabda qismi, yelkasi qiya bichilgan koketka, o'tkazma yeng va yoqa kismalardan iborat eDi. Ushbu ko'ylak keyinchalik ayollar GarDerobiDa barqaror o'mashib, ayollar milliy kostyumining asosi bo'lib kolDi.

Shular qatoriDa, tunikasimon bichimli, tik yoqali va yenglari manjetli ko'ylaklar ham kenG tarqalganDi. Katta yoshdagi ayollar vertikal kesimli yoki plissirobkasiz tik yoqali ko'ylaklarni kiyishda davom etishgan.

Paranji ayolning jussasini boshidan to'bonigacha berkitib turardi, yuzini to'g'ri to'rtburchakli ot qiliDan to'kilgan "chacheon" ("chibat") bilan berkitishardi. Chacheonning chegaralari qora mato bilan tikilardi, bahzan u zanjir kashta bilan yoki mashinaDa tikilgan naqsh bilan bezatilarDi. Chacheonga esa ko'z tegmaslik maqsadida rangli ko'zmunchoqlarni tikib qo'yishardi.

Maxsining ustiDan kavush kiyilarDi. Ular charmDan qilinarDi. Boylar, oDatDa, iroqi usulida kashtalangan maxsi va kavushni kiyishardi. Qishda O'zbekistonda yog'ochdan yasalgan boshmoq "xakkar kavush" va yog'och kavush kiyishgan.

Erkaklar kostyumi. Barcha yoshdagi erkaklar kiyimi tunikasimon bo'lgan. Bu erkaklar kiyimininG kadimiyligini ifodalayDi. Erkaklar kiyimi ichki va ustki, bel va yelka kiyimlardan iborat.

Qadimdan erkaklarning ichki ko'ylagining uzunliGi tizzaGacha bo'lgan, keyinroq uni bo'ksasiGacha qisqartirishDi. Ko'ylakning yoqasi ikki xil bo'lgan. Farg'ona boDiysiDa yoqani to'g'ri to'rtburchak shakilda matoning diaGonali bo'yicha qirqib, kenG tomonlarini birlashtirib vertikal yoqa o'miziga tikishgan. Ko'ylakning ikkinchi turida esa, yoqa o'mizi Gorizontal qilinarDi. Farg'ona boDiysiDa va ToshkentDa uni "mullabachcha" Deb atashardi. Yoqa o'mizining chekkasi jiyak bilan tikib chiqilarDi. Ko'ndalangan yoqali ko'ylakni Zarafshon, Kashkadaryo, Surxondaryo, Buxoro va XorazmDa ham kiyishgan.

Farg'ona va Toshkent viloyatlarida ichki ko'ylak "yaxtak" kenG tarqalganDi. Uni ip matolar (chit, bo'z) dan tikishardi. Yaxtakni yoshlar va keksalar kiyishgan. Bu yengil va qulay ko'ylakning oldi ochiq bo'lib, uzunliGi tizzaGacha yoki uzunroq eDi. Yoqasi zich choklar bilan qabilarDi, ko'kragida bitta tuGma va izmaGa tuGmalanardi.

Ichki bel kiyimi "ishton" kenG bo'lgan. UzunliGi to'pig'igacha bo'lib, ishtonbog' bilan mahkamlanardi. Ishtonni ip gazlamaDan tikishgan. Sovuq paytda jun yoki qalin ip gazmolDan tikilgan astarli yoki astarsiz "shimni" kiyishardi; chabanDozlar namatdan qilingan, o'vchilar — mo'yna yoki junDan qilingan astarsiz "shalbar" kiyishardi. Bu shalbarlar O'rta Osiyo erkaklarining kadimiy kiyimi bo'lgan.

XX asrGa qadar sallani o'spirinlar ham kiyishgan. Karilar sallasi — oq, o'rta yoshlarniki — kul rang, yoshlarniki — rang-barang bo'lgan.

Erkaklarning asosiy oyoq kiyimi maxsi, kavush bo'lgan. «Amrikon» charmDan qilingan oyoq kiyimlari kimmatbaho eDi. Maxsi va kavushlar qalin charmDan qilinarDi. Yozda kavushning o'zini kiyishardi. Undan tashqari erkaklar baland qo'njli va poshnali etik kiyishgan.

Nazorat sabollari

1. XIX—XX asrDa tarixiy Davr ba badiiy uslub qanDay bo'lGan?
2. AyollarninG kostyumi: kiyimlar turlari, Gazlamalari ba kiyilish uslublari qanDay bo'lGan?
3. Erkaklar kostyumiDa kiyim turlari qanDay bo'lGan?
4. XIX—XX asrDa ustki kiyimlarninG qanDay turlari bo'lGan?
5. XIX—XX asrDa oyoq kiyimlar qanDay bo'lGan?
6. KostyumninG ijtimoiy ba mahalliy belgilari, bezaklari qanDay bo'lGan?

16-Ma'ruza

Mavzu: KOMPOZISIYa KATEGORIYalARI.

Reja:

- 1. Tektonika va shakl.**
- 2. Kostyum hajmiy fazoviy shaklining xususiyatlari.**
- 3. Shaklning geometrik ko'rinishi. Hajmdorlik darajasi.**
- 4. Kostyum silueti. Kiyimda chiziqlar.**
- 5. Shaklning kata-kichikligi va vazni.**

Kompozisiya nazariyasi kuzatilayotgan hodisalar orasidagi eng umumiy va eng muhim aloqalar va munosabatlarni aks ettiruvchi kategoriyalarga asoslangan bo'ladi. Kostyum kompozisiyasida tektonika bilan hajmiy-fazoviy struktura ana shunday kategoriyalar hisoblanadi.

T y e k t o n i k l i k. Tektonika shakldagi konstruksiya va material bajarayotgan ishining ko'zga ko'rinib turadigan aksidir.

Tektonik shakl — bu sanoat buyumi shakli konstruksiyasining va tayyorlanish usulining material xususiyatlarini badiiy tushunib yetish, ularni ko'rsatib berish nuqtai nazaridan ifoda topgan ishi. Material yoki tayyorlanish usuli tektonik shaklni topish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Rassom material xususiyatlarini, uning konstruksiyadagi ishini va buyumning tayyorlanish texnologiyasi xususiyatlarini-bularning hammasini umumiy g'oyaga, yahni badiiy va kompozision mo'ljalga bo'ysundirib ongli ravishda tanlaydi, topadi, bo'rttirib ko'rsatadi. Har bir materialning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ana shu xususiyatlar muayyan shaklga asos qilib olinadi. Masalan, shifondan bo'laklar minimal miqdorda. bo'lgan mayin, plastik, yengal shakl yasalsa, parchadan qattiq, «quruq», geometrik shakl yasaladi.

Kostyum h a j m i y – f a z o v i y shaklining xususiyatlari. Har bir buyum shakliga uning hamma elementlarining bir-biri bilan va fazo bilan o'zaro muayyan ta'sir etishi nuqtai nazaridan qarash, yahni uni hajmiy-fazoviy struktura, deb hisoblash mumkin. Bu struktura bahzan oddiy va ixcham, bahzan esa juda murakkab bo'ladi. Hajmiy-fazoviy strukturaning murakkablik darajasi qandayligidan qathi nazar undagi barcha elementlarning o'zaro aloqadorlik sistemasi tektonika bilan bir qatorda chinakam uyg'unlikka erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

S h a k l n i n g g y e o m y e t r i k k o' r i n i s h i shaklnang uchta fazoviy koordinatalaridagi o'lcham: miqdorlarining nisbati bilan, umuman shakl yuzasi va detallari yuzasining xarakteri bilan belgilanadi.

Kiyim shaklini ko'rib chiqayotganimizdagi dastlabki taassurot shaklning hajmdorlik darajasidan siluet va chiziqlardan kelib chiqadi.

H a j m d o r l i k d a r a j a s i — bu uchta fazoviy koordinata bo'ylab shakl o'lchamlarining nisbatidir.

Shaklning hajmdorlik darajasi bitta (vertikal bo'ylab) o'lchamli bo'lsa, chiziqli xarakterda (1-rasm a); (ikki bo'y va en) o'lchamli bo'lsa, tekislik xarakterida (1-rasm, b); kiyim shakli uch o'lchamli bo'lsa, hajmi xarakterida (1-rasm, v) bo'ladi. Buyumning

hajmdorlik darajasini tanlash kostyumning ko'rinishi va nimaga mo'ljallanganligi bilan belgilanadi. Chiziqli xarakterdagi shakl bashang kiyimlar uchun tavsiya etilsa, tekislik xarakteridagisi har qanday ishgamo'ljallangan kostyum uchun va hamma turdagi gavdalar uchun, hajim xarakteridagishakil

Shaklning tabiiy chegaralarini tashkil etuvchi siluet ramkadan iborat bo'lib, kostyumning yechimlari shu ramka doirasida hal qilinadi. Kiyimning konturlarini, kiyim alohida qismlarining va detallarining konturlarini chiziq lab deb olsa bo'ladi.

Kiyim kompozitsiyasi to'g'ri, egri va siniq chiziqlardan tuziladi. Kiyimda quyidagi asosiy chiziq guruhlari bo'ladi:

- siluet chiziqlari – shaklning tashqi konturlarini chegaralovchi chiziqlar;
- konstruktiv chiziqlar – kiyim shaklini hosil qilishdagina qatnashadigan chiziqlar: yelka choklari, yon choklar, vitochkalar, yeng o'tkazish choklari va hokazo;
- konstruktiv-dekorativ chiziqlar – ham shakl hosil qiluvchi, ham dekorativ vazifalarni bajaruvchi chiziqlar: bo'rtmalar, koketkalar ulash choklari, qirqmalar, mayda taxlamalar, taxlamalar, bo'rtma burmalar, drapirovkalar, burmalar va hokazo.
- dekorativ chiziqlar – dekorativ vazifalarnigina bajaruvchi chiziqlar: qo'yma burmalar, ikki tomonlama qo'yma burmalar, tasmalar, to'olar, bezak detallar, furnitura, kashtalar, bantlar va hokazo.

Shaklning katta-kichikligi. Shaklning bu xususiyatiga kiyim shakli katta-kichikligi bilan odam gavdasining nisbati tariqasida, shuningdek ikki yoki uch shaklning ularni bir-biriga taqqoslayotgandagi nisbati tariqasida qaraladi. Faqat ko'rinishi o'xshash kiyimlarnigina va ularning tarkibiy qismlarinigina katta-kichiklik jihatidan taqqoslash mumkin.

Katta bilan kichikni taqqoslayotganda shaklning katta-kichikligi umuman hayoldagina kattalashib yoki kichiklashib ko'rinadi.

Massa (vazn) – bu umuman kiyim shaklini yoki undagi alohida qismlarning ko'rinishidagi og'irlik miqdori. Shakl massasining ko'rib idrok etilishiga quyidagilar ta'sir etadi:

- shaklning katta-kichikligi – kattaroq shaklning massasi kattaroq tuyuladi;
- hajmdorlik darajasi – hajm xarakteridagi shaklning massasi maksimal, chiziqli shaklning massasi esa minimal bo'lib ko'rinadi;
- shaklning o'z chegarasi doirasida konstruktiv, konstruktiv-dekorativ va dekorativchiziq larga qanchalik to'lganlik darajasi – kiyim shakli chiziq larga siyrak to'lgan bo'lsa, massasi minimal, eng ko'p to'lgan bo'lsa, maksimal bo'lib ko'rinadi;
- materialning rangi, rasmi va fakturasi – fonini zich to'ldirib turgan yirik rasmlar, odmi yoki to'q rangli materiallar va fakturasi yaltiroq materiallar massasi maksimal, fonini siyrak to'ldirib turgan mayda rasmlar, ochiq rangli, oqish materiallar va fakturasi siyrak materiallar massasi minimal bo'lib ko'rinadi.

Kiyimlarni iyalayotganda uning massasini yoshga, mavsumga va nimaga mo'ljallanganiga b'g'lab his' bga`lish kerak. Masalan, yasli yoshidagi va maktabgacha b`lalar kiyimining massasi engil bo'lishi kerak, shuning uchun ularni hamma vaqt`chiq, mayin rangli, mayda siyrak rasmlar materiallardan tikiladi; qishki kiyim ko'rinishidan engil bo'lishi kerak; chunki uning tabiiy vazni og'ir bo'ladi, shuning uchun ular hurpaygan fakturali materiallardan tikiladi; maktab bitiruvchilarining tantana mar'simidagi ko'ylaklarini`q, pushti, hav`rang va b`shqa rangd`r gulli materiallardan tikiladi, chunki bunda yoshlikka hayolchanlik x`s bo'lgani uchun sho`xchanlik, qushdek engillik parv`z hissi sezilib turishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Tektonika tushunchasi nimani anglatadi?
2. Shakl tektonikasiga nima ta'sir etadi?
3. Notektoniklik paydo bo'lishiga nima sabab bo'ladi?

4. Shakl tarkibi va uning elementlari qanday?
5. Qanday xususiyatlar shaklni tavsiflaydi?
6. Shaklning hajmdorlik darajasi, katta-kichikligi, vazni nimalarga bog'liq?
7. Siluetni nima ifodalaydi?
8. Chiziqlar buyum o'aklida qanday funksiyani bajaradi?

17-Ma'ruza

Mavzu: KOMPOZISIYANING XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Shaklning yaxlitligi.
2. Kompozitsion markazning kostyumdagi roli.
3. Kompozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatish qonuniyatlari: miqdor qonuni, markazda joylashganlik qonuni,
4. sifat qonuni, ma'no omili qonuni.

1. Kompozitsiyaning xususiyatlari.

Kostyum kompozitsiyasining uyg'un bir butunlik sifatida shaklning yaxlitligi, simmetrik va assimetrik, statiklik va dinamiklik kabi bir qator xususiyatlari bor.

Shaklning yaxlitligi. Shaklning yaxlitligi konstruktiv yechim bilan uning kompozitsion mujassamligi o'rtasidagi aloqa mantiqini va uyg'unligini aks ettirgan bo'ladi.

Har qanday kompozitsiyani asosiy elementlar bilan ahamiyati kamroq va ikkinchi darajaliroq elementlarining bir-biriga bo'ysunganligiga asoslangan muayyan sistema deb qaralsa bo'ladi. Bunda asosiy va bo'ysungan qismlar bir butunlik tashkil etib, o'zaro bir-birini kuchaytiradi.

Kompozitsion tuzilgan shaklda, shu jumladan kostyumda ham albatta asosiy qism yoki kompozitsion markaz mavjud bo'lib, boshqa qismlar unga bo'sundirilishi kerak. Asosiy qismi yaxlit kompozitsiyada hukmron bo'lib turadi.

Kompozitsion markaz gavdaning istalgan qismida bo'lishi mumkin. Masalan, u yuzga yaqin joyda, belda, ko'krakda, bo'ksada, oyoq yaqinida, oldinda yoki orqada va hakazo yerda bo'ladi. Kostyumning istalgan qismi – masalan, bosh kiyim, ust kiyim, oyoq kiyim, sumka, biron bezak va hakazo kompozitsion markaz bo'lishi mumkin. Ust kiyimning istalgan qismi ham – ko'krak qismi, yubka, yenglar, yoqa va boshqalar – kompozitsion markaz bo'lishi mumkin.

2. Shakl elementlarining o'zaro tengsizlikni belgilaydigan kompozitsion markazning boshqa qismlardan ustunligini tahkidlab beradigan xususiyatlarning qonuniyatlari asosida kompozitsion markazni bo'rttirib ko'rsatishga erishiladi. Quyida shu qonuniyatlarni ko'rib chiqamiz.

Miqdor qonuni. Bir turli bezakning kata-kichikligi, hajmi massasi yoki miqdori kattaroq bo'lgan boshqa qismlaridan ustunroq kelib turadi.

Markazda bo'lish qonuni. Bo'rttirib ko'rsatiladigan qismning nisbati markaziy joyda bo'lishi boshqa hamma jihatlari teng bo'lgan holda shu qismni asosiy kompozitsion markaz qilib ko'rsatadi.

Sifat qonuni. Xususiyati yoki bir guruh xususiyatlari jihatidan ko'proq bo'lgan qism ustun bo'lib turadi. Rasmiy xarakterda bo'lgan har qanday turli bezaklarning har xil aktivligidan va sifatidan foydalanish asosiy qismni bir butundan ajratib ko'rsatish priyomlaridan biri bo'ladi.

Ma'no omili qonuni. Bir butunning mahnosi bor bezakli qismi (emblema, gullar va boshqalar) rasmiy xarakterdagi bezakli qismlardan ustun turadi.

Nazorat savollari:

1. Kostyumda kompozision markazning roli.
2. Odam qomatining tashqi ko'rinishida kompozision markazning o'rni.
3. Miqdor qonunining mahnosi.
4. Sifat qonunining mahnosi.
5. Markazda joylashganlik qonunining mahnosi.
6. Mahno omili qonunining mahnosi.

18-Ma'ruza

Mavzu: Kompozitsiya xususiyatlari.

Reja:

1. Statiklik va dinamiklik.
2. Simmetriya va asimmetriya. Simmetriya elementlari va guruhlari tavsifi.
3. Kompozitsion muvozanat.

1. **Statiklik va dinamiklik.** Kompozisiyaning ifodaliligi, uning tushunishga qulayligi shaklning bo'ysungan qismlaridan bosh kompozision markaz tomon harakatda bo'lib ko'rinishi – d i n a m i k a s i qay darajada hosil qilinganligiga bog'liq. Nimaniki bo'rttirilayotganligi aniq bo'lishi uchun, harakatni kostyumning qaysi qismiga qaralsa ham, dinamika rassomningbo'rttirib qo'ygan qismini ko'rsatadigan bo'lishi kerak.

St a t i k l i k – shakl turg'unligining, tinchlik holatining bo'rttirib ifoda etilganidir. Shaklning statikligi o'lchamlar tengligini yoki o'lchamlar nyuansini xarakterlaydi. O'lchamlardagi kontrstlik qaysi qismida ko'p bo'lsa, o'sha tomonga yo'nalgan dinamika hosil qiladi.

Shaklning dinamikasi ham shaklni qismlarga kontrast bo'laklashda paydo bo'ladi. Bunday holda kattaroq qismdan kichikroq qism tomonga harakat paydo bo'ladi.

Shakl ichidagi chiziqlar yo'nalishining xarakteri qandayligiga qarab shaklning turlicha yo'nalganligi hosil bo'ladi, uning dinamikligi kuchayadi.

3. **Simmetriya va asimmetriya.** Simmetriya – kompozisiyaning eng yorqin va ko'zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri «Simmetriya... uning yordamida inson bir necha asrlardan beri tartibga, go'zallikka va kamolotga yetishmoqchi va buni chratmoqchi bo'lib kelgan g'oyadir» (G.Veylg'. Simmetriya. M., Nauka, 1968, 37-bet). Demak, simmetriya oddiy bir takrorlanish emas, balki o'ziga hos go'zallik normasi ekan.

Kiyim kompozisiyasida simmetriya masalalari mhim rolg' o'ynaydi. Bu ikki jihatda: materialdagi ram kompozisiyasida va kostyumning o'ziga shakllantirishda o'z aksini topadi. Kostyumlarda kiyimning alohida qismlari, uning detallari, rangi, bezagi, furniturasini va o'u kabilarni simmetrik joylashtirilishi mumkin.

7. Kostyum dinamikasi nimalarda namoyon bo'ladi?
8. Dinamikaning qomatning tashqi ko'rinishida roli qanday?
9. Statik shakl nimani ifodalaydi?
10. Aktiv dinamik kompozisiyalar qanday maqsadda qo'llaniladi?

19- Ma'ruza

Mavzu: KOMPOZISIYA VOSITALARI.

Reja:

1. Kostyumda proporsiya va nisbatlar.

2. Oddiy va irrasional nisbatlar.

3. «Oltin kesim» proporsiyasi.

4. Masshtablilik.

5. Kostyum kompozitsiyasida metrik va ritmik tuzilishlar. Kompozitsiyada aritmiya.

1. **Kostyumdagi proporsiyalar va nisbatlar.** Kompozitsiya vositalari orasida proporsiyalarni, o'lcham nisbatlarini birinchi o'ringa qo'yish kerak, butun kompozitsiyani qurishning asosi mana shu. Kiyim detallari o'zicha qanchalik yaxshi bo'lmasin, lekin butun hajmiy-fazoviy strukturani aniq proporsional sistema birlashtirib turmasa, shaklning bir butun bo'lib chiqishi qiyin.

2. **Kostyum kompozitsiyasida ikki xil asosiy nisbat** bo'lib, ularni oddiy nisbatlar va irrasional nisbat deb ataladi.

Oddiy nisbatlar-bu butun sonlar nisbati. 1 dan 8 gacha bo'lgan sonlar oddiy nisbatlarning chegarasi hisoblanadi. Ularni amalda inson idrok etadigan miqdorlar mosligini aniq idrok etish chegarasi deyish mumkin. Kostyum ustidagi tadqiqotlar ko'rsatishicha, 7/8, 3/4, 1/3, 2/3 nisbatlari eng ko'p uchrab turar ekan (1-rasm).

Irrasional nisbatlar - bu ko'pincha geometrik tuzilma yordamida olinadigan kasr sonlar nisbati. Quyidagilar irrasional nisbatlarning proporsionalligiga misol bo'la oladi:

kvadrat tomonining uning diagonaliga nisbati (1.21-rasm, a),

$$a:v-1: \sqrt{2}=1:1,42$$


teng tomonli uchburchak asosi yarmining shu uchburchak balandligiga nisbati (2-rasm, b).

$$a:v-1: \sqrt{3}=1: 1,74;$$

«oltin kesim» deb ataladigan geometrik proporsiya

$$a:v=v:(a \div v)$$

$$a:v-1: \sqrt{2}=1:1,62;$$



1.20-рasm. Кийим қисmlарининг oddiy nisbatlari.

1-rasm. Kiyim qismlarining oddiy nisbatlari.

3. «Oltin kesim» proporsiyalari irrasional sonlarni ishlatish qulayroq bo'lishi uchun soyalar qatori tarzida ifoda etiladigan matematik qatori qilishi mumkiya. Bu qatordagi raqamlar o'zidan oldingi ikkita son yig'indisi tarzida hosil bo'ladi (1, 2, 3, 5, 8, 13, 21, 34, 55 va hokazo), har qaysi juftdagi sonlar nisbati (3/5, 5/8, 8/13, 13/21 va boshqalar) esa «oltin kesim» nisbatiga yaqin.

AV kesmasining «oltin» kesim»ini geometrik yasash quyidagicha bo'ladi: V nuqtasidan AV ga perpendikulyar chiziladi, unda $VE=1/2 AV$ kesmasi belgilanadi. A bilan ve nuqtalari birlashtiriladi, $veD=VE$ kesmasi, nihoyat, $AS-AD$ belgilanadi (3-rasm, v)

$$AV:AS=AS:VS$$

Kostyumda shaklning hamma xususiyat jihatlarini proporsiyalab olinadi, yahni detallarning o'lchamlari proporsiyasigina emas, balki ifodali faktura sathining, gul, dekarativ elementlar, shakl alohida qismlari sathining proporsiyalari ham topib olinadi.

Qanday proporsional nisbatlarni tanlash kiyimga qo'yiladigan funksional talablarga bog'liq. Shuning uchun hamma hollarda bir xilda yaxshi bo'laveradigan qandaydir proporsiya bo'lishi mumkin emas. Proyaorsiya tanlash kishi gavdasining xususiyatlariga ham - uniig bo'yi, to'laligi, qomat rasoligi qandayligiga va, albatta, yoshiga ham bog'liq.

Masshtab va masshtablilik. Kiyimda proporsiya garmoniyaning yana bir muhim vositasi-masshtablilik bilan ajralmaslikda bo'ladi.

4. M a s h t a b l i l i k - shaklning va undagi elementlarning odamga nisbatan, tevarak atrof fazoga va boshqa shakllarga nisbatan mosligida.


«Inson-hamma narsalarning mehyori» - bu so'zlar qadimgi Yunonistonning Delg'fa shahridagi ibodatxona marmar devoriga o'yib yozilgan. Bu so'zlar predmetlar olamining inson o'zi uchun nimaiki yaratgan bo'lsa, hammasining mohiyatini aniq ifoda etadi.

Kiyimning masshtabliligi uning absolyut katta-kichikligiga emas, balki uning odamga mosligiga qarab belgilanadi. Kostyum va uni tashkil etgan hamma elementlar (ust kiyim, oyoq kiyim, bosh kiyim va boshqalar) odamning o'lchamlariga – uning bo'yiga, gavda tuzilishiga hamma vaqt biron nisbatda, yahni mos bo'ladi. Kostyumning masshtabliligi uning nimaga muljallanganiga, mavsumiga, odam qanday atrof-muhitda bo'lishiga bog'liq.

5. K o n t r a s t, n y u a n s, o' x s h a s h l i k. Shakl elementlari o'xshashlik prinsipiga kontrastlik prinsipiga binoan birlashgan bo'lishi, yahni hamma ismlar takrorlanishga asoslangan yoki shakl, rang, hajmlilik darajasi, fakturadagi chiziqlar jihatidan bir-biriga qarama-qarshi ko'yilgan bo'lishi mumkin.

Kotrast kompozisiyadagi turli yo'nalishlarning kurashi, bir-biriga qarama-qarshiligi bo'lib, bu rassomlarning hamma vaqt eng keng foydalanib kelgan vositalaridan biri bo'lib kelgan. Kostyum tarixida kontrastlik temasi asar xarakteri, davr uslubi, avtor individualligi qandayligiga qarab eng xilma-xil ifoda topib asrlar davomida o'zgarib kelgan (5- rasm, a).

Kontrastga asoslanib tuzilgan kompozisiyaning mohiyati uning ko'rinish ta'siri



Kiyim qismlarining irratsional nisbatlari.

O'xshashlik prinsipi - bu asos qilib olingan elementning kostyum kompozitsiyasida taraqqiy topib, turli variantlarda rivojlana borishi. Ko'p hollarda kostyumda bitta shakl hukmronlik qilib, boshqa asosiy qismlarning hammasi unga bo'ysungan bo'ladi-yu, lekin kostyum ko'pqavatli, murakkablashgan strukturadek taassurot qoldiradi (5-rasm, b).

Kontrast bilan o'xshashlik kiyimning asosiy strukturasi belgilab beradi, lekin ayni vaqtda mayinroq «ko'rkamlik samarasi» beradigan qo'shimcha bo'lishi zaruratini tug'diradi; kompozitsiyadagi kontrast nozik akkompament, jo'rlik qiladigan nyuanslar bo'lishi zaruratini keltirib chiqaradi - busiz kompozitsiya odatda dag'al, primitiv bo'lib qoladi. Shakl elementlarini nyuansli ishlash, aniq-ravshan hal etilgan shaklda ozroqqina dekor (bezak) bo'lishi kompozitsiya g'oyasini faqat tahkidlab beradi, uni ifodalibroq va obrazliroq darajaga ko'taradi.

Nyuans — eng nozik vosita. Sal-pal degani qaerda boshlansa, san'at o'sha yerda boshlanadi,— deganida buyuk K. Bryulov san'atning eng xarakterli xususiyatini aytgan bo'lsa ajab emas.

Kostyum kompozitsiyasini nyuansli hal etilishi hamma yoshdagilarga, amma tur qomatlilarga va har qanday ishga muljallanganda ham to'g'ri kelaveradi.

6. Kostyum tuzilishidagi metrik va ritmik qonuniyatlar.

Ritm tushunchasi umumiy ko'rinishda bu shakl elementlarining navbatma-navbat qonuniy almashlunib turishi.

Kostyum kompozitsiyasidagi ritm kostyumni tashkil etgan shaklning hamma qismlarini bir-biriga bog'lovich vositalardan biri hisoblanadi. Ritm hosil qiladigan bog'lanish kuchi anchagina bo'lib, u kostyumning hamma qismlarida ta'sir etib turadi. Ritm har qanday asarga musiqiylik baxsh etadi, uni harakatga soladi. Ritm sababli bosh kompozitsion g'oyaning jarangdorligi ortadi, muayyan tartib va ravonlik kiritiladi.

Shakl elementlarining va ular o'rtasidagi intervalning takroriyliigi ritmning xarakterli alomati hisoblanadi. Aksentli (ehtibor tortadigan) elementlar aktiv elementlari deyiladi, aksentsizlari esa passiv elementlar deb yuritiladi. Aktiv elementlar o'rtasidagi oraliq (interval) dinamik o'ldim deb ataladi. Elementlari harakatining orta borish tezligi surhat deyiladi.

7. Oddiy metrik qator, yahni bir xil shaklning teng intervallarda takrorlanishi kompozitsiya tuzilishiga asos qilib olinadigan eng oddiy qonuniyat hisoblanadi.

Metrik takrorlanishlarga quyidagi singari har xil bo'lishi mumkin: teng shakllarning teng intervallarda takrorlanishi

(6-rasm, a);

teng shakllarining har qaysi shakl tugagan joydan boshlab (intervalsiz) takrorlanishi; shakl elementlarini radial joylashtirilishi.

Ikki yoki undan ortiq oddiy metrik qatorlarning birga qo'shilganidan iborat qator murakkab metrik qator deb ataladi.

Biroq metrik qatorni haddan tashqari ko'p ishlatib bo'lmasligini yodda tutish kerak, chunki bir turli elementlarning tez-tez takrorlanishi zerikarli bir xillikka olib keladi.

Shakllarning va ular o'rtasidagi intervallarning birin – ketin qonuniy o'zgara borishi (kattalash yoki kichraya borishi) shakllar joylanishining ritmik tartibi deyiladi.

Ritmik qator arifmetik progressiya yoki geometrik progressiya qonuniyatlariga asoslanib tuzilganda qatoridagi qo'shni elementlar yoki intervallar miqdori o'rtasida o'zgarma farq bo'lishiga, geometrik progressiyaga asoslanib tuzilganda esa o'zgarma nisbat bo'lishiga rioya qilinadi.

Ritmik tartiblar quyidagi sxemalarda bo'lishi mumkin:

teng elementlar takrorlanib turadi-yu, ular o'rtasidagi intervallar o'zgarab boradi;

shakl elementlari kattalasha yoki kichraya boradi-yu, interval o'zgarib boradi;

shakl elementlari ham, ular o'rtasida intervallar ham kattalasha yoki kichraya boradi;

shakl elementlari radial yo'nalishda kattalasha yoki kichraya boradi.

Ritm kamaya boradigan yoki orta boradigan bo'ladi. Bunday surhat sekin, o'rtacha, tez bo'lishi mumkin. Bu kostyumda dinamika hosil qiladi.

Odam gavdasining simmetriya o'qiga nisbatan yechimlarini turli xil qilishdan foydalanib, shakl elementlarining ritmik tuzilishiga erisha bo'ladi.

Kostyum kompazisiyasida ritmik tuzilishning birgina turidan foydalanish kamdan-kam uchraydi. Shakl elementlarining metroritmik (murakkab ritm) bo'lib birga qo'shilganini ko'proq ko'rish mumkin.

8. Shaklning hamma elementlari – hajm, chiziqlar, faktura, detallar, bezak va hokazolar ritmik tuzilishi mumkin.

Kostyum elementlarining birlashish sxemasiga binoan ritmik tuzilish vertikal, gorizantal, diogonal, spiralg', nursimon, radial, bir tomonli, qarama-qarshi va aralash yo'nalishli bo'ladi.

Elementlarning rivojlana borishida o'z qonuniyat borligi kompazisiyani ritmik hal qilishning xarakterli xususiyatidir. Bu qonuniyatning buzilishi, yahni aritmiya kompazisiya yaxlit idrok etilishiga putur yetkazadi.

Nazorat savollari:

1. Shaklning qaysi elementlarini simmetrik yoki asimmetrik joylashtirish mumkin?
2. Klassik simmetriya nimada ifodalanadi?
3. Afin simmetriya nima orqali ifodalanadi?
4. O'xshashlik simmetriya nima orqali ifodalanadi?
5. Egri chiziqli simmetriya nima orqali ifodalanadi?
6. Kompozision muvozanatning kostyumdagi roli.
7. Asimmetrik kompozisiyalarda kompozision muvozanat qanday yaratiladi?
8. Kompozisiyada ritmning o'rni.
9. Ritmik elementlarni qanday yo'nalishlarda joylashtirish mumkin?
10. Metrik qonuniyatlarning qanday turlari mavjud?
11. Ritmik qonuniyatlarning qanday turlari mavjud?
12. Kostyumda aritmiyaning paydo bo'lishiga nima sabab bo'ladi?
13. Shaklning qaysi elementlarini kontrast, nyuans va o'xshash nisbatlarda qo'llash mumkin?
14. Kompozisiyada oddiy nisbatlarning o'rni.
15. Irrasional nisbarlarni tuzish qonuniyatlari.
16. Kostyumda masshtablilik tushunchasi.

20-Ma'ruza

Mavzu: KOSTYUM KOMPOZISIYASIDA RANGNING ROLI.

Reja:

1. **Rang xususiyatlari va birikmalari.**
2. **Xromatik va axromatik ranglar.**
3. **Ranglar doirasi.**
4. **Xromatik ranglarning uyg'un birikmalari.**
5. **Ranglarning baravar kontrastligi hodisalari.**
6. **Sunhiy yorug'lik ta'sirida rangni idrok etishning o'zgarishi.**

1. Rang xususiyatlari va birikmalari. Predmetning eng muhim informasion sifatlaridan biri rang hisoblanadi. Amaliy san'at predmetlarida rangning vazifasi turlicha. Bular psixologik, jismoniy, estetik vazifalardir.

Rang xayot mamot simvoli quvonch va hafalik ifodasi bo'lib kelgan: u ilqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik, yengillik va vazminlik, hissini berishi mumkin; bizning xis tuyg'ularimizda ham rang ta'siri bor: "qora kun", "oq ko'ngil", "yorqin niyatlar", "qora niyat", "oq yo'l" – bularning hammasi rangning psixologik vazifasini bildiradi.

2. Tabiatdagi hamma ranglar xromatik (spektr ranglari bilan qirmizi) va axromatik (oq, qora, kulrang) ranglarga bo'linadi.

Xromatik ranglarning xususiyatlari quyidagilardir:

- rang tusi –rangning shartli belgisi (qizil, ko'k, to'q sariq, havo rang va hokazo) rangning nomi shartli yoki bironta predmet, o'simlik nomiga yaqinlashtirib aytiladi (limon rang, apalg'sin rang, o'rik rang va hokazo);
- rang to'qligi – rang kuchining va xromatik rangga axromatik rang aralashgan bilan xarakterlanadigan rang tusi qanchalik sofligining ko'rsatkichi;
- oqishlik-xromatik rangning oq rangga yaqinlik darajasi;

Axromatik ranglarda faqat oqishlik xususiyatigina bo'ladi. Spektrdagi ranglar eng sof, eng to'q ranglar bo'ladi. Oq aralash ranglarni (pushti, havo rang, bargikaram) pastelg' (mayin) ranglar deyiladi. Kulrang qo'shilsa, to'qligi kam bo'lgan odmi ranglar chiqadi.

3. Agar spektr ranglariga qirmizi rang qo'shib, ularni doira bo'ylab joylashtirilsa, ranglar doirasi hosil bo'ladi. Sariq, ko'k, qizil va yashil ranglar shu doiradagi asosiy ranglar hisoblanadi, chunki ularda ranglar doirasidagi o'zlariga qo'shni ranglar tusi ham, aralashmasi ham bo'lmaydi. Doiradagi qolgan ranglar oraliq ranglar hisoblanib, ular bir-biriga qo'shni asosiy ranglarni aralashtirishdan kelib chiqadi.

Diametrlarning qarama-qarshi uchlaridagi ranglar qo'shimcha ranglar deyiladi. Optik aralashish natijasida ular oq rang hosil qiladi. Bu ranglarda bir-birini to'qroq va kuchaytirib ko'rsatish qobiliyati bor. Masalan, yashil rang qizil rang yonida yashilroq, qizil rang esa qizilroq ko'rinadi.

Ranglarning gavdani o'zgartirib ko'rsatish xususiyati ham bor. Gavdani iliq (sarg'ish qizil va sarg'ish yashil) ranglar yaqinlashtirib va kattalashtirib ko'rsatadi. Sovuq (ko'kish qizil va ko'kish yashil) ranglar uzoqlashtirib va kichriytirib ko'rsatadi. Qora rang gavdani maksimal uzoqlashtirib va kichraytirib, oq esa maksimal yaqinlashtirib va kattalashtirib ko'rsatadi.

4. Kostyum kompozitsiyasini yaratishda ranglar monandligi (garmoniyasi) katta ahamiyatga ega. Kiyimda ko'pincha monoxrom (yakkarangli) birga qo'shilishlar uchraydi – bu rang tusi jihatdan bir xil, lekin oqishligi har xil ranglarning birga qo'shilib kelishi.

Xromatik ranglarning ikki rangli monandligi quyidagi prinsplarda yuzaga keladi:

- o'xshash ranglar – bir xil asosiy ranglardan hosil bo'lgan va ranglar doirasining bir choragidagi ranglarning birga qo'shilgani;
- kontrast ranglar – har xil asosiy ranglardan hosil bo'lgan va ranglar doirasining qarama-qarshi turgan choraklaridagi ranglarning (sarg'ish qizil bilan ko'kish yashilning va ko'kish qizil bilan sarg'ish yashilning) biriga qo'shilgani;
- o'xshash kontrast ranglar – bitta mushtarak asosiy rang va ranglar doirasining yonma-yon choraklaridagi kontrast asosiy ranglari bor ranglar, sarg'ish qizil bilan ko'kish qizil, ko'kish qizil bilan ko'kish yashillar, ko'kish yashil bilan sarg'ish yashillar va sarg'ish yashil bilan sarg'ish qizillar) birga qo'shilgani;
- ko'p rangli monandlik uchburchak va to'g'riburchak prinsipida tuziladi.

Axromatik ranglarning ikki rangli birga qo'shilganidagi monandlik kontrastlik va nyuans prinsipida, uch rangli birga qo'shilganlikdagi monandlik esa miqdor va sifat jihatidan o'zaro turli nisbatlar asosida tuziladi. Masalan, ko'plab oqish ranglar bilan oqishligi unga yaqin o'rtacha va kam daraja odmi rangdan.

Xromatik va axromatik ranglarning birga qo'shilgani kiyim kompozitsiyasida juda ifodali bo'lib chiqadi. Oq rang sof xromatik rang tusining kuchi va jarangdorligi yuzaga keladi-da, bayramona manzaralilik hissi tug'iladi; oq rang bilan mayin ranglar (oq-havo rang, oq

bargikaram va boshqalar)uzviy va osongina qo'shilib, soflik va bashanglik hissini yuzaga ketiradi.

Qora bilan sof xromatik rang birga qo'shilib,ko'zga tashlanib turadigan va keskin ko'rinadigan ranglar hosil qiladi.Qora rang tusinig yorvinligini va sofligini bir qadar kamaytirish xususiyatiga ega.

Oraliq ranglar ham xuddi shu qonuniyatga bo'ysunadi. Monandlik umuman birlashadigan ranglarning miqdoriga ham, sifatiga ham bog'liq.

5. Ranglar kompazisiyasini ishlab chiqayotganda ranglarning baravar kontrastligi hodisasini – rangning unga tegib turgan va uni o'rab turgan ranglarga bog'liq o'zgarib ko'rinishini hisobga olish kerak. Bunda xromatik kontrast va oqishlilik kontrasti bo'ladi. Masalan, sariq limon qizil dasturxonda to'q sariq tusga kiradi, sariq dasturxon ustida esa ochroq sariq bo'lib ko'rinadi. Atrofdagi ranglar ta'sirida rang oqshililigining o'zgarishi oqishlilik kontrasti deyiladi. Masalan limon odmi dasturxonda ochroq, oq dasturxonda esa to'qroq rangli ko'rinadi.

Tegishib turgan ranglar bilan o'zaro ta'siri yo'q ranglar neytral ranglar deyiladi. Kulrang,ko'kimtir kulrang, yashilroq kulrang va boshqa ranglar ana shu ranglarga kiradi. Baravar kontrastlik hodisasini hisobga olish bet, ko'z, soch rangiga moslab kiyim rangini tanlashda juda muhim. Nomaqbul rang kontrasti bo'lib qolsa, bet bilan kiyim orasiga neytral rangli yoqa, bezak gazlama, sharf, ro'mol va boshqa ko'rinisdagi neytral rangli yo'l qo'yish kerak.

7. Rang idrok etish sunhiy yoritish, materiallarning fakturasi va zichligi qandayligiga qarab o'zgaradi. Ranglar turli xil yoritishda turlicha ko'rinadi, tabiiy yoruhlik ta'sirida ranglar asl holicha ko'rinsa, sunhiy yoritishda, yoritgich turiga qarab xiraroq yoki yorqinroq ko'rinishi mumkin. Shuningdek materialning fakturasiga qarab ham ranglar turlicha idrok etiladi, masalan, yupqa, harir gazlamalar ochroq ko'rinsa, qalin, zich to'qilgan va tukli gazlamalar to'q ko'rinadi. Sirti yaltiroq ipak gazlamalar va tukli gazlamalar yorug'likning qaysi tomondan tushishiga qarab, turlicha tovlanadi, hamda tuklarining yo'nilishiga qarab ham bitta gazlamaning o'zi ham to'qroq yoki ochroq ko'rinadi.

Nazorat savollari:

1. Rangning fizik va psixofiziologik xususiyatlari.
2. Ranglar doirasini tuzish qoidalari.
3. Xromatik va axromatik ranglarning uyg'un birikmalari.
4. Ranglarning baravar kontrast hodisasi nima?
5. Qanday ranglar neytral hisoblanadi?

21-Ma'ruza

Mavzu: KOSTYUM KOMPOZISIYASIDA MATERIALNING XUSUSIYATLARI VA FAKTURASI.

Reja:

1. **Materiallarning plastik, dekorativ, fizik-mexanik va gigienik xususiyatlari.**
2. **Materialning fakturasi.**
3. **Materiallarning naqsh-guli. Dekorativ motivlar turlari.**
4. **Kostyum kompozisiyasida materialning naqsh gulidan foydalanish.**

1. Kiyimni hajmli shakl deb qaralganda, uning qanday materialdan tikilganini bilish kerak (gazlamalar, trikotaj, mo'yna, charm, zamsha, noto'qima iateriallar, qavat gazlamalar,plyonka, yog'och, plastmassa, shisha va blshqalar).

Bu materiallardan har birining o'z plastik xususiyatlari (mayinlik, osiluvchanlik, dag'allik va shu kabilar), dekorativ xususiyatlari (faktura, rang, naqsh-gul), fizik – mexanik xususiyatlari (zichlik, qayishqoqlik, cho'ziluvchanlik, kirishuvchanlik, titiluvchanlik va boshqalar) va gigiyenik xususiyatlari (havo o'tkazuvchanlik, nam o'tkazuvchanlik, issiq o'tkazuvchanlik va hokazo) bo'lib, shaklning xarakteri va konstruktiv yechim qanday hal etilishini shu xususiyatlar belgilab beradi.

2. Faktura materialning eng ifodali xususiyatlaridan biri hisoblanadi. U seziluvchan informatsiya manbai bo'lib xizmat qiladi.

Faktura – bu material yuzasining tuzilishini xarakterlovchi xususiyat. Faktura tabiiy (mo'yna, teri, yog'och, zamsha va boshqalar) va mexanik yo'l bilan olingan hosila bo'ladi. Materiallar silliq, g'adir-budir, yaltiroq, xira, tukli va hokazo fakturali bo'lishi mumkin. Hosila fakturaning xarakteri materialning qanday usulda (to'qimachilikda, to'r to'qish, trikotaj va hokazo) olinganiga, yuzasining bo'rtiq qismlarining baland-pastligini va iplarning material zichligini belgilaydigan chalishish xarakteriga bog'liq. Sath birligiga to'g'ri keladigan faktura elementlarining katta-kichikligiga va miqdoriga qarab materiallarning yuzasi ifodaliligi jihatidan har xil bo'ladi.

Har bir fakturada badiiy obraz belgilari bo'ladi. Faktura sovuqlik va iliqlik, yengillik va vazminlik va boshqa taassurotlar hosil qilishi mumkin.

Faktura tanlashda mavsum, kiyimning nimaga mo'ljallanganligi, odamning jinsi, yoshi va gavda tuzilishi turi hisobga olinishi kerak. Kechqurungi bashang kiyimlarga yaltillaydigan qimmatbaho sidirg'a materiallar ishlatiladi, lekin ola-chipor materiallar bunday kiyimlarga ishlatilmaydi.

Gazlamaning faktura xususiyatlari umuman shaklni va uning qismlarini idrok qilishda ko'z aldanishi paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, ko'rinishi vazmin, xira, tukli fakturalar shaklni kattalashtirib ko'rsatadi.

3. Shaklning va umuman gavdaning idrok etilishida naqsh gulning muhim ahamiyati bor. Shaklni naqsh guldan ajratib bo'lmaydi. Hamonki shaklda naqsh gul bor ekan, demak naqsh gul shaklning zarur komponenti, bir qismi bo'lib turadi. Naqsh gulning ham kostyum singari ko'p asrli tarixi, xalqlarga, millatlarga mansubligi bor.

Materiallarning ko'pdan-ko'p xil gullarini quyidagi dekorativ motivlar ko'rinishida bo'ladi deb qarash mumkin:

1. o'simlik mavzulari;
2. geometrik mavzular;
3. hayvonot olami mavzusi;
4. buyumlar mavzulari;
5. kalligrafik mavzular;
6. fantastik mavzular;
7. astral mavzular;
8. syujet mavzular;
9. abstrakt mavzular;
10. manzara mavzulari;
11. aralash mavzular.

Rasm tasviri naturalistik yoki stillashtirilgan, yassi yoki hajmli bo'lishi mumkin. Rasm mayda, o'rtacha, yirik bo'lishi mumkin.

Naqsh gul yuzani tekis to'ldirib turishi (motor-harakatlanuvchi yokirapport-takrorlanuvchi bo'lishi) mumkin, yoxud muayyan uchastkalarda joylashgan (kupon hoida yoki hoshiyada) bo'lishi mumkin.

4. Turli kiyim turlarini modellashtirishda naqsh gul tanlashga jiddiy munosabatda bo'lish kerak va naqsh gul xarakteri bilan xususiyatlarini jins-yoshga, gavda tuzilishining tipiga, kiyim nimaga va qaysi mavsumga mo'ljallanganligiga, tikish usuliga qarab hisobga olish kerak.

Bolalar kiyimidagi naqsh gul kompozitsiyasi ayniqsa aniq-ravshan, tushunish oson, ko'pincha qiziqarli rasmi bo'lishi kerak, chunki bolalar kiyimidagi naqsh gulning nafaqat estetik, balki bilim orttirish vazifasi ham bor.

Katta yoshlilar mayda yoki o'rtacha gulli, bosiqroq bo'g'iq tusni mahqul ko'rishadi.

Nazorat savollari:

1. Materiallarning qaysi xususiyatlari plastik xususiyatlariga kiradi?
2. Materiallarning manzarali xususiyatlariga qaysilar kiradi?
3. Materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarining kiyim kompozitsiyasidagi ahamiyati.
4. Kiyim shaklini hosil qilishda materiallarning gigienik xususiyatlari qanday rolg' o'ynaydi?
5. Material fakturasining kiyim kompozitsiyasidagi roli.
6. Gazlamalarning naqsh gullari turlari.
7. Kiyim kompozitsiyasida materiallarning naqsh gulining roli.

22-Ma'ruza

Mavzu: Kostyumdagi dekorativ bezaklar.

Reja:

1. Dekorativ bezakning ahamiyati va turlari.
2. Bezaklarni materiali va shakliga binoan guruhlash.

1. Bezak kompozitsiyaning mustaqil elementi emas – bu qo'shimcha, ziynat bo'lib, kiyimda u yo'q bo'lishi ham mumkin.

Kiyim tarixining har qaysi bosqichiga o'z bezak turlari va ularni ishlatish usullari xos bo'ladi.

Kiyimni modellashtirish tajribasida ishlatiladigan bezak turlari xilma-xil bo'lib, ular kompozitsiyadagi asosiy g'oya bo'lishi yoki kostyumdagi mo'ljallangan badiiy-obrazli niyatni kuchaytiradigan va boyitadigan bo'lishi mumkin. Bezak dan kiyim shaklini yoki uning bir qismini bo'rttirib, shaklni bo'laklarga ajratib ko'rsatish uchun foydalaniladi. Dekorativ bezakning dekorativ va konstruktiv ahamiyati (drapirovka, bo'rtma burma, mayda taxlama, gofre, plisse va hokazo), dekorativ va utilitar ahamiyati (belbog'lar, qoplama cho'ntaklar, tugmalar, furnitura va shu kabilar) va faqat dekorativ ahamiyati (kashtalar, qo'yma burmalar, applikasiya va boshqalar) bo'lishi mumkin.

Hozirgi son-sanoqsiz bezaklarni materiali va shakliga binoan quyidagi guruhlariga ajratsa bo'ladi:

1. Barcha turdagi bo'rtma choklarni, taxlamalar, bo'rtma burmalar, drapirovkalar, plisse, gofre, bezak baxyaqatorlarni tikish natijasida hosil bo'ladigan bezaklar;
2. Kiyimni o'z materialidan yoki bezak gazlamadan yasalgan detallar yordamida bezash (qo'yma burmalar, ikki tomonlama qo'yma burmalar, volanlar, beykalar, mag'izlar, bantlar, galstuklar, xlyastiklar, patalar, pogonlar va hokazo);
3. Maxsus bezak materiallar(to'r, tasma, popuk, lentalar, gullar va boshqalar) yordamida bezash;
4. Furnitura (tugmalar, to'qilar, dekorativ pistonlar, blokcha-pistonlar, "molniya"lar va boshqalar).
5. Kashta, applikasiya, emblemalar, biser va hokazo bezaklar.
6. Boshqa materiallar (mo'yna, charm, zamsha, trikotaj, to'r polotno va hokazolar) yordamida bezash.

7. Kiyim detallariga bosma gul solib bezash.

Bezak turini, uning joyini tanlash kiyimning turi va nimaga mo'ljallanganligiga, kiyim shakliga, materialning fakturasiga, jins-yosh omiliga, odam gavdasining turiga, gavdaning shaxsiy xususiyatlariga, insonning xarakteriga bog'liq.

1. Ranglarni, chiziqlar va burchaklar yo'nalishini, o'lchov, forma, sath, masofa, oraliq va hokazolarni idrok qilishda ko'zning aldanishidan ham kiyimda foydalaniladi. Idrok qilishdagi aldanish quyidagi turlarga ajratiladi: formani ikki o'lchovda idrok qilishdagi aldanish, uchinchi o'lchovni idrok qilishdagi aldanish va rangni idrok qilishdagi aldanish (bu holda forma o'zgaradi) va hokazo. Kiyimni loyihalashda ko'zning yuqorida aytib o'tilgan aldanishlaridan, yahni illyuziyalar gruppasidan turlicha foydalaniladi.

Nazorat savollari:

1. Kiyimda bezakning vazifasi.
2. Kiyimda bezakning ahamiyati.
3. Bezak elementlarning materiali va shakliga binoan guruhlarga bo'linishi.
4. Bezak turini tanlashda nimalarga ehtibor berish kerak?

10-Ma'ruza

Mavzu: Kostyum kompozitsiyasida ko'z aldanishlardan foydalanish.

Reja:

1. Illyuziya (ko'zning aldanishi) tushunchasi.
2. illyuziya turlari.
3. gavda shaklini idrok etishda illyuziyaning roli.
4. kostyum kompozitsiyasida illyuziyalardan foydalanish.

Vertikal yo'nalishni idrok qilishdagi aldanish shundan iboratki, vertikal chiziq xuddi shunday uzunlikdagi gorizontol chiziqdan uzunroq bo'lib ko'rinadi. Shu bilan birga, yuqorida joylashgan detalg' pastda joylashgan shunday o'lchamdagi detaldan kattaroq bo'lib ko'rinadi.

To'ldirilgan oraliqni idrok qilishdagi aldanish shundan iboratki, ichi chiziqlar bilan to'ldirilgan qismlar xuddi shunday hajmdagi, lekin ichi bo'sh qismlardan kattaroq bo'lib ko'rinadi. Agar shu qismni to'ldirib turgan chiziqlar zich joylashgan va ko'p miqdorda bo'lsa, ko'z haqiqatan ham aldanadi: lekin soni kam yoki chiziqlar siyrak joylashgan taqdirda teskari taasurol tug'iladi. Kiyimda bo'yni, beli, yelka va hokazolarni balandroq yoki pastroq, uzunroq yoki qisqaroq qilib ko'rsatish uchun ko'zning ana shunday aldanishidan foydalaniladi. Gavdaning ko'zga yaqqol tashlanib to'radigan qismida detallarni ko'paytirib yuborish yaramaydi, aks holda bu yerdagi o'lcham yanada kattaroq bo'lib ko'rinadi. Bunday hollarda «psixologik plan faktori» rolg' o'ynaydi.

O'tkir burchakni idrok qilishdagi aldanish. Odatda o'tkir burchakning tomonlari orasidagi kichik masofa ko'zga kattaroq bo'lib, to'mtoq burchaklarning tomonlari orasidagi katta masofa esa, aksincha, mavjud masofadan kichikroq bo'lib ko'rinadi. Gavdaning bir qismini boshqa qismidan kengroq va kichikroq qilib ko'rsatish kerak bo'lganda ko'zning

o'tkir burchakni idrok qilish xususiyatidan foydalanish mumkin. Masalan, yelkalar serbar bo'lib ko'rinishi uchun yoqa o'mizini V-simon (o'tkir burchak shaklida) o'yish kerak.

Kontrast va tekislash qonuniyatlarini ham nazarda tutish lozim. Kontrastlar diqqatni o'ziga jalb etadi, esda qoladi va his- tuyg'ularimizga kuchli tag'sir ko'rsatadi. Odatda katta burchaklar bilan o'rab olingan burchak kichik burchaklar bilan o'rab olingan xuddi shunday o'lchamdagi burchakdan kichikroq bo'lib ko'rinadi. Bo'ylari bab-baravar bo'lgan ikki kishi yonma- yon turganda ozg'inroq kishining bo'yi balandroq bo'lib ko'rinadi. Boshlarining kattaligi bir-xil bo'lgan ikki kishidan biri katta o'lchamli bosh kiyimi kiyisa va ikkinchisining bosh kiyimi kichkina va tor bo'lsa, mana shu ikkinchi kishining boshi kattaroq bo'lib ko'rinadi. Agar kiyimning yoqasi bo'yniga yopishib turmasa, ingichka bo'yin yanada ingichkaroq bo'lib ko'rinadi. Kiyimning beli chippa yopishib turganda (belbog' tortib bog'langanda) yo'g'on son sohasi yanada yo'g'onrok bo'lib ko'rinadi. Shunga ko'ra gavdaning biror xususiyati kamroq seziladigan bo'lishini istasangiz kiyimda juda kontrast detallarni ishlatmang.

Ranglarni idrok qilishdagi aldanish (illyuziya sveta). Yuzaning egrilik darajasiga qarab ranglar har xil idrok qilinishi mumkin; masalan, botiq, qiyshik, yuzalar ranglarni yigadi, bo'rttirib ko'rsatadi; qavariq, do'mboq shakllar ayrim joylarda ranglarni kuchsizlantiradi. Ko'zimiz buyumning qaerda turganligiga va yorug'lik manbaiga qarab, ranglarning o'zgarishidagi arang sezilarli farqni ham ko'rishi: materiallarni, yorug'likni qaytarish va sindirish xossasiga qarab, bir-biridan farq qilish mumkin; masalan, duxoba, tukli (paxmoq) materialarnikiga karaganda yorqinroq (to'yinganroq) bo'lib ko'rinadi.

Ikki xil rang (axromatik va xromatik ranglar)ning aralashuvidan hosil bo'ladigan chetli kontrast ranglar illyuziyasining ajoyib ko'rinishlaridan biridir. Bu hodisa taqqoslanayotganda ranglar chetida ularga xil kelmaydigan rang paydo bo'lishidan iborat.

Ravshan, to'yingan, yoqimli (iliq) ranglar kamroq to'yingan, xira, sovuq ranglarga qaraganda masofani yaqinroq qilib ko'rsatadi.

Nazorat savollari:

1. Ilyuziya tushunchasi.
2. Ilyuziya guruhlari.
3. Vertikal yo'nalishni idrok qilishdagi aldanish.
4. To'ldirilgan oraliqni idrok qilishdagi aldanish.
5. O'tkir burchakni idrok qilishdagi aldanish.
6. Tekislashda ro'y beradigan aldanish.
7. Ranglarni idrok qilishdagi aldanish.